



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISHGA QO'YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR

Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi

Namangan davlat universiteti

3-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: fayzullayevxovoxon23@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu materialda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishga qo'yiladigan pedagogik talablar va ularning mazmuni hamda mohiyati yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: pedagogik talab, imtiyoz, maktabgacha ta'lim, tarbiyalanuvchi, tarbiyachi, malaka, qobiliyat, rivojlanish, muhit.

Аннотация: В данном материале освещаются педагогические требования к организации развивающей среды в дошкольных образовательных организациях, а также их содержание и сущность.

Ключевые слова: педагогическое требование, льгота, дошкольное образование, ученик, воспитатель, квалификация, способность, развитие, среда.

Abstract: This material highlights the pedagogical requirements for organizing a developing environment in preschool educational organizations, as well as their content and essence.



Key words: pedagogical requirements, privileges, preschool education, pupil, educator, qualification, ability, development, environment.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun Respublikamizning barcha hududlarida davlat, davlat hususiy sherikchilik va oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini sonini ko'paytirish, va ularga imtiyozli subsidiyalar berish tizimi joriy qilindi. Ushbu jarayon olis va chekka hududlarda ham bolalarni maktabgacha ta'limga qamrov darajasini oshirishga sababchi bo'ldi.[4] Lekin, Respublikamizdagi aholining barcha qismi ham maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar uchun belgilangan badal to'lovini to'lay olmasligi, olis va chekka hududlarda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud emasligi sababli ularning farzandlari maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olinmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yildagi 23-sentyabrdagi PQ-330-sonli Qarori [1] ijrosini ta'minlash maqsadida Respublikamizning barcha viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha tuman (shahar) tashkilotlarining rahbarlari va ularning o'rinbosarlariga biriktirilgan eng og'ir ahvoldagi kambag'al oilalar ro'yxati shakllantirildi va ularning maktabgacha ta'lim yoshidagi farzandlari barcha turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga imtiyoz asosida (badal puli to'lanmaydi, navbat kutilmaydi) qabul qilinmoqda. Ushbu qaror asosida hozirgi kunda mahalla yettiligi tomonidan “Kam ta'minlangan” deb e'tirof etilgan barcha oilalarning farzandlari maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilinmoqda. Beg'ubor bolalarni ijtimoiylashuvi jarayonlari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanishini inobatga olgan holda rivojlantiruvchi muhit va unga qo'yilgan pedagogik talablarni yanada rivojlantirish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit – bu bolalarning rivojlanishi uchun turli moddiy predmetlar, bolalar uchun turli xil faoliyat turlarini ta'minlash uchun turli xildagi didaktik va ijtimoiy vositalar to'plamidir. Rivojlantiruvchi



muhit bolalarning ijtimoiylashuvi, ularning o'sishi va atrofda dunyo bilan tanishishi, u bilan qanday munosabatda bo'lishni bilishi va mustaqillikni o'rganishi uchun kerak.

Rivojlantiruvchi muhit bolaning shaxsini shakllantirish jarayonining yaxlit harakatlantiruvchi kuchi sifatida ishlaydi. Bola o'z munosabati va harakatlari orqali atrof-muhitga ta'sir qiladi. Bola faoliyati nuqtai nazaridan u o'zi uchun eng muhim harakatlarni amalga oshiradigan muhitni yaratadi, quradi. O'zaro munosabatlar nuqtai nazaridan u o'zi uchun turli xil faoliyat va muloqotdagi ehtiyojlarini qondirishga imkon beradigan rivojlantiruvchi muhitda faollashadi. Bola o'z muhitida qulaylik hissini yo'qotishi bilan oq, u uni o'zgartira boshlaydi va agar ijtimoiy moslashuvning iloji bo'lmasa, u bu muhitni tark etadi va o'zi uchun yangisini tashkil qiladi.

Rivojlanish muhitiga oid ko'plab asarlar yaratilgan bo'lib, ularning mualliflari uning mazmuni va xususiyatlarini o'ziga xos tarzda ochib beradi. Ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda rivojlantiruvchi muhit imkoniyatlaridan foydalanish tamoyillari va usullarining butun majmuasi faol o'rganilmoqda. Masalan: L.S. Vygotskiy, V.V. Davydov, V.P. Zinchenko, A., V. Petrovskiy [3] va boshqalar.

Rivojlantiruvchi muhitning o'zgaruvchanligi bolalarda va guruhlarda turli xil kichik burchak va rivojlantirish markazlarining mavjudligi, shuningdek, bolalar uchun erkin tanlovni ta'minlaydigan turli xil materiallar, o'yinlar, o'yinchoqlar va jihozlarning mavjudligi bilan ta'minlanadi. O'yin materiallari muntazam ravishda almashtiriladi va bolalarning o'yinli, ijtimoiy, kognitiv va ilmiy faoliyatini rag'batlantiradigan yangi elementlar bilan to'ldiriladi. Rivojlantiruvchi muhitning qulayligi - bolalarning ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlari o'tkaziladigan barcha yo'nalishlar asosida erkin tanlash imkoniyatini belgilaydi.[6] Bolalar o'yinlar, o'yinchoqlar, materiallar va ular uchun barcha asosiy faoliyatni ta'minlaydigan o'quv qo'llanmalaridan erkin foydalanishlari asosiy talablarni belgilaydi. Rivojlantiruvchi muhitning majburiy sharti esa - bu materiallar va jihozlarning xizmatga yaroqliligi va xavfsizligidir.



Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishga qo’yiladigan pedagogik talablar “Ilk qadam” davlat o’quv dasturida belgilab qo’yilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning yoshi, individual xususiyatlari va ehtiyojlarini, shuningdek, mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlantiruvchi muhitga qo’yilgan pedagogik talablarnin hammasi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim asos hisoblanadi.[5] Yuqoridagi talablarni maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat yuritib kelayotgan tarbiyachilar kreativ ravishda yanada o’zgartirib, o’zlarining faoliyat jarayonlarida foydalanishlari yanada ijobiy samara beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning yoshi, individual xususiyatlari va ehtiyojlarini, shuningdek, mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Rivojlantiruvchi muhit mazmuniga quyidagi pedagogik
talablar qo'yiladi:**

- mazmunan boy
- o'zgartuvchan
- polifunksional
- muqobil
- hammabop
- xavfsiz
- oqilona
- shaxga yo'naltirilgan
- mahalliy sharoitga moslashtirilgan

[2]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning rivojlantiruvchi muhit negizida rivojlanish markazlarini tashkil etish borasidagi bilimlarini aniqlash, ularga amaliy yordam ko'rsatish, rivojlanish markazlarida tashkil etilgan mashg'ulotlar hamda bolalarning mustaqil faoliyatini baholash, topshiriqlar berishda bolalarning yosh va fiziologik imkoniyatlarini inobatga olish masalalariga alohida ahamiyat berilishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi pedagogik muhitni tashkil etish tizimli ravishda turli texnologiyalardan foydalangan holda olib borish ijobiy samaralar beradi.

Rivojlantiruvchi muhitning mazmuni maktabgacha ta'lim tashkilotining sharoitlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kamida 5 ta rivojlanish markazlarini tashkil etishni ta'minlashi kerak.



Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yildagi 23-sentyabrdagi PQ-330-sonli Qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi– T.:2022
3. Shin A.V., Mirziyoeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Nazarova V.A., Mikaylova U.T., Abdunazarova N. F., Zakirov A. A., Isxakova M. R., Umirzakova N. R. “Oila va mahalla bilan hamkorlik” Uslubiy qo‘llanmasi, T – 2020
4. Kalmuratov T.N. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish funksiyalari. “Maktabgacha ta’lim sifatini oshirish muammolari va yechimlari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.
5. Zaynutdinova M.B, Mavlonov N.Sh. Nutiqni tanishda ovozli interfeys texnologiyalaridan foydalaniladigan dasturiy maxsulotlar taxlili va istiqbollari, TATU Qarshi filiali Respublika ilmiy-amaliy koferensiya 20-21-aprel 2018-yil
6. S.N.Tashboyeva. 2024. MTTlarida rivojlanish muhitining pedagogik tavsifi. 620-623.